



ERTA YOSHDAGI BOLALARDA CHET TILIGA MOTIVATSIYA YARATISH: PEDAGOGIK YONDASHUVLAR

Matqosimova Mohira Erkinbek qizi

ADCHTI, Nemis tili nazariyasi va amaliyoti Kafedrası o'qituvchisi

Mohiraqina@gmail.com

Sarvinoz Hasanboyeva

*Andijon davlat chet tillari institute IFO'MT fakulteti MBT 201-guruh
talabasi*

Sarvinozhasanboyeva12@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada erta yoshdagi bolalarda chet tilini o'rganishga bo'lgan motivatsiyani shakllantirish va rivojlantirishning samarali pedagogik yondashuvlari yoritilgan. Til o'rganish jarayonida bolalarning psixologik va emotsional xususiyatlarini inobatga olgan holda, o'yin, musiqiy va vizual metodlar orqali qiziqish uyg'otish yo'llari tahlil qilingan. Tadqiqotda motivatsiyaning dars samaradorligiga ta'siri, o'qituvchining roli hamda ijtimoiy muhitning ahamiyati asoslab berilgan. Maqola maktabgacha ta'lim va boshlang'ich ta'lim bosqichlarida chet tilini o'rgatish bilan shug'ullanuvchi pedagoglar uchun amaliy tavsiyalarni o'z ichiga oladi.

Kalit so'zlar: erta yoshdagi ta'lim, chet tili o'rganish, motivatsiya, pedagogic yondashuvlar, o'yinli metodlar, maktabgacha ta'lim, boshlang'ich ta'lim, o'qituvchi roli, vizual va audio vositalar, ota-ona ishtiroki

Аннотация: В данной статье рассматриваются эффективные педагогические подходы к формированию и развитию мотивации у детей младшего возраста к изучению иностранного языка. Проанализированы игровые, музыкальные и визуальные методы, способствующие пробуждению интереса с учетом психологических и эмоциональных особенностей детей.



В исследовании освещается влияние мотивации на эффективность занятий, роль педагога и значение социальной среды. Статья содержит практические рекомендации для воспитателей и учителей, работающих на уровне дошкольного и начального образования.

Ключевые слова: дошкольное образование, изучение иностранного языка, мотивация, педагогические подходы, игровые методы, дошкольное обучение, начальное образование, роль учителя, визуальные и аудиоматериалы, участие родителей.

Annotation: This article explores effective pedagogical approaches to fostering and developing motivation in early childhood foreign language learning. It analyzes methods such as play-based, musical, and visual techniques that spark interest in children, taking into account their psychological and emotional characteristics. The study highlights the impact of motivation on lesson effectiveness, the teacher's role, and the importance of the social environment. The article provides practical recommendations for educators involved in teaching foreign languages at preschool and early primary school levels.

Key words: early childhood education, foreign language learning, motivation, pedagogical approaches, game-based methods, preschool education, primary education, teacher's role, visual and audio materials, parental involvement.

Globalizatsiya davrida chet tillarini o'rganish har bir inson hayotining ajralmas qismiga aylanmoqda. Ayniqsa, bolalik davrida til o'rganish inson miyasi moslashuvchanligi yuqori bo'lgan davrga to'g'ri keladi. Shu sababli, ko'plab davlatlarda maktabgacha ta'lim muassasalaridan boshlab chet tilini o'rgatish amaliyoti keng yoyilgan. Ammo erta yoshdagi bolalarning darsga bo'lgan qiziqishi, psixologik holati va o'rganishga bo'lgan motivatsiyasi ularning til o'zlashtirish darajasiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Shuning uchun, pedagogik



yondashuvlar to'g'ri tanlangan taqdirdagina, o'quv jarayoni samarali bo'lishi mumkin.

Motivatsiya — bu o'quvchini faoliyatga undovchi, maqsadga intilishiga sabab bo'ladigan ichki va tashqi omillar yig'indisidir. Deci va Ryan tomonidan ilgari surilgan Self-Determination Theory nazariyasiga ko'ra, o'quvchilar o'z ixtiyori bilan, qiziqish asosida harakat qilgandagina ularning ichki motivatsiyasi rivojlanadi. Erta yoshdagi bolalar esa o'z tabiatiga ko'ra emotsional, qiziquvchan va qisqa diqqatga ega bo'lishadi. Ular uchun motivatsiya manbai ko'pincha o'yin, rag'bat, qiziqarli materiallar va pedagog bilan ijobiy aloqa bo'ladi.

O'yinlar – bu bolalar uchun eng tabiiy o'quv muhiti hisoblanadi. Ta'limiy o'yinlar, ayniqsa chet tili darslarida, bolalarning passiv emas, balki faol ishtirokini ta'minlaydi. Masalan, so'z topish o'yinlari, "Simon says", "Flashcard guessing", "Role-play" va boshqa topshiriqlar bolalarning yangi so'zlarni yodlab qolishiga va ularni to'g'ri qo'llashiga yordam beradi. Vygotskiy nazariyasiga ko'ra, bola rivoji ijtimoiy muhit bilan chambarchas bog'liq. O'yinlar esa aynan ijtimoiy muloqot, hamkorlik va raqobat orqali rivojlanadi. Bundan tashqari, o'yinlar orqali til strukturasi, talaffuz, grammatika va leksikani tabiiy muhitda mustahkamlash imkoniyati yaratiladi.

Qo'shiqlar, she'rlar va rasmlar materiallar orqali til o'rganish bolalar uchun qiziqarli bo'ladi. Musiqalar bolalarning e'tiborini jalb qiladi, ritm orqali eslab qolish darajasini oshiradi, talaffuzni to'g'rilashda yordam beradi. Masalan, ingliz tilida "If you're happy and you know it", "Old MacDonald had a farm" kabi qo'shiqlar orqali yangi so'zlar va gap tuzish o'rganiladi. Rasmlar kitoblari, multfilmlar va animatsion materiallar esa bolalarning vizual idroki orqali tilga bo'lgan qiziqishini uyg'otadi. Paivio tomonidan taklif etilgan Dual Coding Theory ga ko'ra, ma'lumot vizual va verbal kanallar orqali taqdim etilganda, u miyada mustahkamroq saqlanadi.



Motivatsiyani shakllantirishda o'qituvchining roli beqiyosdir. U faqat bilim beruvchi emas, balki mehribon, ijobiy, quvnoq va ishonchli murabbiy sifatida harakat qilishi zarur. O'qituvchining bolaning ishtirokini rag'batlantirishi, kichik yutuqlarini qadrlashi, individual yondashuvni qo'llashi orqali ichki motivatsiya mustahkamlanadi. Kommunikativ yondashuv, task-based learning (vazifaga asoslangan ta'lim), total physical response kabi metodlar aynan bolalar bilan ishlashda ijobiy natijalar beradi. Ushbu metodlar harakat, sensor sezgi va real hayotiy vaziyatlarga asoslanadi. Til o'rganish faqat maktab yoki bog'chada emas, balki oilaviy muhitda ham davom etishi zarur. Ota-onalarning ijobiy munosabati, til o'rganishga bo'lgan qo'llab-quvvatlashi bolaning motivatsiyasini kuchaytiradi. Masalan, uyda inglizcha multfilmlar ko'rish, birgalikda so'z o'rganish yoki oddiy iboralarni kundalik hayotda qo'llash – bu kichik harakatlar katta natijalarga olib keladi.

Turli mamlakatlarda olib borilgan tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, erta yoshdagi bolalarda chet tilini o'rganishda motivatsiyani shakllantirishda o'yin va multimediyadan foydalanish juda yuqori natija beradi. Masalan, Cambridge universiteti tomonidan 2021-yilda o'tkazilgan tadqiqotda 4-6 yoshli bolalar ikki guruhga bo'linib o'qitilgan: biri an'anaviy metodlar asosida, ikkinchisi esa o'yinlar va rasmlar materiallari asosida ta'lim olgan. Natijada o'yin asosidagi guruhdagi bolalarning so'z boyligi 30% ga tezroq oshgani aniqlangan. Shuningdek, O'zbekiston oliy ta'lim muassasalarida ham olib borilgan ba'zi tajriba darslari ko'rsatadiki, bolalar musiqa va harakatli darslarga faolroq qatnashadi va darsga bo'lgan qiziqishlari ortadi. Bu esa ularning tilni o'zlashtirishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Shu sababli, maktabgacha va boshlang'ich bosqichlarda o'qituvchilar zamonaviy, interaktiv metodlardan foydalanishga intilishi kerak.

Erta yoshdagi bolalarda chet tilini o'rganishga qiziqish ularning til o'zlashtirish jarayonida muhim omil hisoblanadi. Bolalar 3-7 yosh oralig'ida til o'rganishga eng sezgir va qulay davrda bo'ladilar. Bu yoshda ularning miyasi yangi



soʻz va ifodalarni tez eslab qoladi, toʻgʻri talaffuzni osonlik bilan oʻzlashtiradi va tabiiy ravishda tilni qabul qilishga tayyor boʻladi. Chet tiliga erta qiziqish uygʻotish bolalarning kelajakdagi taʼlim jarayoniga ijobiy taʼsir koʻrsatadi. Bunday bolalar maktab va oliy oʻquv yurtlarida yuqori natijalarga erishishlari, global miqyosda raqobatbardosh boʻlishlari mumkin. Til bilish ularning ijtimoiy faolligini, oʻz fikrini erkin ifoda eta olish qobiliyatini oshiradi va oʻziga boʻlgan ishonchni kuchaytiradi.

Shuningdek, chet tilini oʻrganish orqali bolalar boshqa millat va madaniyatlar bilan tanishadilar, bu esa ularning dunyoqarashini kengaytiradi, bagʻrikenglik, hurmat va ochiq fikrlilikni rivojlantiradi. Chet tili oʻrganish nafaqat lingvistik, balki aql-idrok jihatdan ham bolaga foyda keltiradi: ularning eslab qolish, mantiqiy fikrlash, tafakkur qilish, diqqatni jamlash kabi koʻnikmalari kuchayadi. Bu esa boshqa fanlarni ham muvaffaqiyatli oʻzlashtirishga zamin yaratadi. Erta yoshdagi bolalarda chet tiliga boʻlgan qiziqishni uygʻotish uchun oʻyinlar, qoʻshiqlar, interaktiv darslar, vizual va audio materiallardan foydalanish samarali hisoblanadi. Darslar quvnoq va harakatlarga boy boʻlsa, bolalar tilni oʻrganishni zavq bilan qabul qiladilar. Shuningdek, ularni ragʻbatlantirish, maqtov orqali motivatsiya berish ham til oʻrganishga boʻlgan ishtiyoqni kuchaytiradi. Tadqiqotlar shuni koʻrsatadiki, 2-7 yosh oraligʻi bolaning til oʻrganish salohiyati eng yuqori boʻlgan davr hisoblanadi. Bu davrda bola miyasi “gubka” (sponge brain) kabi tashqi muhitdagi til maʼlumotlarini oʻziga tez singdiradi. Aynan shuning uchun ham bu yoshda oʻrgatilgan chet tili bola tomonidan tabiiy va oson qabul qilinadi. Til oʻrganish faqat lingvistik foyda bilan cheklanib qolmaydi. Ilmiy tadqiqotlar koʻrsatishicha, bir nechta tilni oʻrganayotgan bolalarda xotira, mantiqiy fikrlash, eʼtibor va muammolarni hal qilish koʻnikmalari yaxshiroq shakllanadi. Shuningdek, koʻp tilli bolalar ijtimoiy jihatdan faol, ochiqkoʻngil, oʻz fikrini bemalol ifoda eta oladigan shaxs sifatida rivojlanadi. Chet tilini erta oʻrganish nafaqat maktab davrida, balki kelajakda ishga joylashish, xorijiy tajribalarni



o'zlashtirishda ham katta ustunlik beradi. Qiziqarli faktlardan yana biri shundaki, bolalar kattalarga qaraganda chet tilining talaffuzini va ohangini ancha mukammal o'zlashtiradi. Ular bu jarayonda grammatikani alohida o'rganmaydi, balki tilni tabiiy ravishda, eshitish va takrorlash orqali o'zlashtiradi. Shuning uchun ham o'yinlar, qo'shiqlar, multfilmlar kabi vositalar til o'rganish jarayonini yanada samaraliroq qiladi. Psixologlar fikriga ko'ra, darslarda o'yinlardan foydalanish bolalarning e'tiborini 30-40 foizga ko'proq jalb qiladi va ularda o'rganishga qiziqish ortadi.

Shuningdek, til o'rganish miyani "mashq" qildiradi, bu esa qarish jarayonini sekinlashtirishga ham yordam beradi. Masalan, ikki yoki undan ortiq tilni biladigan insonlarda Altsgeymer kasalligi kechroq boshlanishi aniqlangan. Demak, bolalikda boshlangan til o'rganish, faqat hozirgi emas, balki kelajakdagi sog'liq uchun ham foydalidir. Xullas, erta yoshda chet tiliga qiziqish uyg'otish – bu nafaqat til o'rgatish, balki bolaga kelajakdagi intellektual va ijtimoiy muvaffaqiyatlar uchun mustahkam poydevor yaratishdir.

Amaliy tavsiyalarga to'xtaldigan bo'lsak, har bir darsda motivatsion faoliyatni o'yin, qo'shiq yoki rasm orqali boshlash, individual har bir bolaning qiziqishi va darajasini hisobga olish, rag'bat va kichik sovrinlar orqali ijobiy muhit yaratish, mashg'ulotlarni qisqa, ammo dinamik va rang-barang uslubda olib boorish, ota-onalarni til o'rganish jarayoniga jalb qilish bo'yicha tavsiyalar berish lozim.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, erta yoshdagi bolalarda chet tiliga bo'lgan motivatsiyani uyg'otish – bu faqatgina ta'limiy emas, balki psixologik, emotsional va ijtimoiy jarayonlarni o'z ichiga olgan murakkab tizimdir. O'yin, musiqa, vizual metodlar, o'qituvchining shaxsiyati va ijtimoiy muhit bu jarayonda muhim rol o'ynaydi. To'g'ri pedagogik yondashuvlar orqali bolalarning chet tiliga nisbatan ijobiy munosabatini shakllantirish, ularning til o'rganishda muvaffaqiyatli bo'lishini ta'minlaydi.



Foydalanilgan manbalar:

1. Deci, E. L., & Ryan, R. M. (2000). Intrinsic and Extrinsic Motivations: Classic Definitions and New Directions. Contemporary Educational Psychology.
2. Bodrova, E., & Leong, D. J. (2007). Tools of the Mind: The Vygotskian Approach to Early Childhood Education. Pearson Education.
3. Harmer, J. (2007). The Practice of English Language Teaching. Pearson Longman.
4. Paivio, A. (1986). Mental Representations: A Dual Coding Approach. Oxford University Press.
5. Slavin, R. E. (2006). Educational Psychology: Theory and Practice. Pearson.